

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
SHARQ FILOLOGIYASI FAKULTETI
TURKIY TILLAR KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: “Bir xotin dushmani” romanida lingvopoetik
vositalarning aks etishi**

5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (turk tili) ta’lim yo‘nalishi

Bajardi: 5120100 – Filologiya va tillarni
o‘qitish (turk tili) ta’lim yo‘nalishi
bitiruvchisi S.B. Nigmatillayeva ____

Ilmiy rahbar: f.f.d. H.Dadaboyev

Toshkent – 2019

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi:

Sharq filologiyasi fakulteti dekani

f.f.d., dots. Q. Omonov

«_____»_____ 2019 y.

“Turkiy tillar” kafedrası mudiri f.f.d.

P.Kenjayeua

«_____»_____ 2019

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I BOB. LINGVOPOETIK VOSITALAR VA ULARNING TURLARI HAQIDA.....	8
1.1. Fonetik vositalar.....	8
1.2. Morfologik vositalar.....	11
1.3. Sintaktik vositalar.....	17
1.4. I bob yuzasidan xulosalar.....	20
II BOB. RASHOD NURI GUNTEKINNING “BIR XOTIN DUSHMANI” ASARIDAGI LEKSIK-SEMANTIK VOSITALARNING IFODALANISHI.....	22
2.1. Rashod Nuri Guntekinning “Bir xotin dushmani” romanida sinonimlarning qo‘llanilishi.....	22
2.2. Antonimlarning qo‘llanilishi.....	28
2.3. Iboralarning qo‘llanilishi.....	31
2.4. II bob yuzasidan xulosalar.....	40
UMUMIY XULOSALAR.....	41
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	44

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Muhtaram birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Biz dunyodagi taraqqiy topgan davlatlar safiga kirishni maqsad qilarkanmiz, avvalambor, olimlarimiz kam o'rganilgan, dolzarb muammolarni tadqiq qilishga kirishishi, ularning ilmi, obro'si olamda mashhur bo'lishi, jahon ilm-fanning yuksak mezonlariga mos bo'lishi darkor"¹. Darvoqe, filologiya fani sohasida olib borilayotgan fundamental tadqiqotlar mundarijasida sharq adabiyoti tarixida muhim o'rin tutgan nomdor adiblar ijodini o'rganish, asarlarni lingvopoetik asnoda tahlil qilish ham alohida o'rin tutadi.

O'zbek tilshunosligida lingvopoetikaning oyoqqa turishida va rivojlanishida X.Doniyorov, S.Mirzaev, Q.Samadov, I.Qo'chqortoev, X.Abdurahmonov, N.Mahmudov, B.Umurqulov, I.Mirzaev, M.Yo'ldoshev kabi olimlarning xizmatlari katta bo'ldi.² Ular badiiy asar tilining stilistik, badiiy -estetik jihatlarini yozuvchining so'z tanlashi, uning o'ziga xos tili, umumxalq tiliga bo'lgan munosabati, yangi so'z va iboralar yaratishi kabi omillar nuqtai nazaridan tekshirdilar. Ayniqsa, M.Yo'ldoshevlar tomonidan badiiy matn lingvopoetik xususiyatlarining o'zbek tilshunosligida birinchi marta dissertatsion planda tadqiq etilishi bu boradagi ishlarni yana bir pog'ona yuqoriga ko'tardi. Olim badiiy matnni lingvopoetik tahlil etishning yetti tamoyilini: shakl va mazmun birligi, makon va zamon birligi, matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini aniqlash, badiiy matnga badiiy –estetik butunlik sifatida yondashish va asar konseptini aniqlash, badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash,

¹ Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. - T, 1999. B. 14.

² ДониёровХ., МирзаевС. Сўзсанъати. –Тошкент: Ўзадабийнашр, 1962; СамадовҚ,Ойбекнингтилмахорати. –Т., 1981; -ҚўчқортоевИ. Бадийнуткстилистикаси. –Тошкент, 1975; АбдурахмоновХ., МахмудовН. Сўзстетикаси. –Т.Фан, 1981; УмуркуловБ. Бадийадабиётдасўз. –Т.Фан, 1993; МирзаевИ. Проблемылингвопэтическойинтерпретациистихотворноготекста (наматериалесовременнойузбекскойпоэзии): Дисс...док.филол.наук. –Т. 1992; ЮлдашевМ. Бадийматннинглингвопэтиктадкики: Филол.фан.док...дисс.автореф. –Т. 2009.

badiiy matndagi eksplitsitlik nisbatini aniqlash, badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash tamoyilini ishlab chiqdi.

Individuallik ham badiiy matn ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, lingvopoetik tahlil jarayonida yozuvchining o'ziga xos uslubiy mahoratini tadqiq etishda bosh mezon hisoblanadi. V.V.Vinogradov ta'kidlaganidek, —individual uslub tushunchasi badiiy matn tadqiqining asosiy kategoriyalaridan biri sifatida tan olinadi. Individuallik, yagonalik yozuvchining ijod jarayonida so'z tanlash san'ati bilan belgilanadi. Bu o'z o'rnida yozuvchining lisoniy shaxsiyatini, ya'ni badiiy tafakkurni, shaxsiy idrok tarzini, qolaversa, lisoniy layoqati – lingvistik mahoratini namoyon etadi. Ayniqsa, individual uslub tushunchasi biror muallif asarlari tilini unga zamondosh ijodkor asarlari tili bilan qiyosiy tadqiq qilinganda yanada oydinlashadi. Chunki yozuvchi uslubida san'atkor tomonidan estetik jihatdan qo'llangan barcha til vositalari uning badiiy tafakkuri bilan ichki bog'liqlik asosida birlashadi.

Badiiy asar tilini o'rganish keng qamrovli jarayon bo'lib, nafaqat adabiyotshunoslikka bog'liq badiiy g'oya, fikr, umumiy obrazlilik, individuallik, badiiy mahorat, shuningdek, tilshunoslikka oid semiotika, konnotatsiya, pragmatika kabi tushunchalarni umumlashtiradi, kognitiv fan sohalari bilan ham bog'lanib, o'zining tahlil doirasini bilish, tushunish, idrok etish, tahlil qilish, lisoniy tafakkur, lisoniy ong, lisoniy faoliyat, lisoniy shaxsiyat kabi tushunchalar bilan ham kengaytirib boradi. Ishga mana shu tarzda kompleks tarzda yondashish lingvopoetika uchun kutilgan natijalarni beradi.

Mualliflarning til imkoniyatlaridan foydalanish masalasi yoki qissa va romanlarning lisoniy jihati yoritilib kelmoqda, aytish mumkinki, nasriy asarlarning bu jihatiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Shuni aytish joizki, bugungi kunda chet tillariga bo'lgan e'tibor borgan sari ortib bormoqda va chet tilidagi asarlar o'zbek tiliga chop etilib kitobxonlar

e'tiboriga topshirilmoqda. Chet tilidagi asarlar bilan o'zbek tilidagi asarlar qiyoslanib, ularning o'xshashliklari, jozibadorligi, asarning chiroyli va ravon yozilganligi o'rganilmoqda. Bizning ta'lim yo'nalishimiz sharq tillari bilan chambarchas bog'liqligi sababli turk adiblarining taniqli namoyondasi hisoblangan Rashod Nuri Guntekin asarini lingvopoetik jihatdan tahlil qilishni maqsad qildik.

Turk adiblarining asarlari lingvopoetik jihatdan o'rganilmaganligi, hatto Turkiyaning o'zida ham bu mavzuga deyarli qo'l urilmaganligi tadqiqot ishimizning dolzarbligidan dalolat beradi.

Ilgariroq badiiy asar poetikasiga nisbatan lisoniy yondashuvga harakat H.H.Niyoziy, Cho'lpon, A.Qodiriy, Oybek, G'.G'ulom, A.Qahhor, Said Ahmad kabi adiblar ijodiga nisbatan kuzatiladi.

Istiqlol davri adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari O.Sharafiddinov, S.Mamajonov, U.Normatov, Y.Solijonov, Q.Yo'ldoshev, Z.Pardayevalarning ilmiy tadqiqotlarida tadqiq va tahlil etilmoqda. Bu ishlarda ham asosiy e'tibor asarning badiiy tasvir jihatlariga qaratilgan bo'lib, badiiy asar tilining lisoniy xususiyatlari kam o'rganilgan. Bu borada muayyan ishlar amalga oshirilganiga qaramay, ko'rsatilgan davrdagi ayrim yetuk ijodkorlar asarlarining lisoniy jihatlari deyarli o'rganilmaganligi ishning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Badiiy asar nutqi poetik xususiyatlarini turk adibi asari badiiy-adabiy tili materiallari, lisoniy dalillar asosida tahlil qilish ushbu tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

Rashod Nuri Guntekinning "Bir xotin dushmani" asari uslubini o'rganish orqali adib mahoratining lisoniy omillarini tadqiq etish;

- badiiy asar nutqi va adib uslubini shakllantirishdagi leksik, fonetik, grammatik vositalar, ko'chimlar va boshqalarning lisoniy omillari, voqelashuvi va individual nutqni shakllantirishdagi o'rnini atroflicha tahlil qilish.

Tadqiqotning metodologik asosi. Tadqiqotning metodologik asosi bo‘lib, dialektikaning umumiylik-xususiylik, shakl-mazmun kategoriyalari xizmat qiladi. Ana shu asosda zidlanuvchi til-nutq dixotomiyasida badiiy tasvir vositalari mavqeyini aniqlashda til va uslub masalasi yuzasidan ham adabiyotshunoslik, ham tilshunoslikdagi nazariy asoslar va ilmiy tahlil usullariga tayaniladi.

Asosan, lingvopoetik, uslubiy va qiyosiy tahlil usullaridan keng foydalanish nazarda tutiladi.

Tadqiqot manbai.Rashod Nuri Guntekinning “Bir xotin dushmani” romani tadqiqotning asosiy manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

- Turk adiblari orasida o‘zining beqiyos o‘rniga va o‘ziga xos nutqiga ega bo‘lgan Rashod Nuri Guntekin nutqi badiiy lisoniy nuqtai nazardan tahlil etildi;

- uslub, uslubiyat, poetika tushunchalari aniqlashtirildi;

- uslub turlari va chegaralari belgilandi;

- individual uslub xususiyatlari ochib berildi;

- turli xil lisoniy vositalar - gapni murakkablashtiruvchi vositalar, muayyan fonetik hamda leksik vositalarning Rashod Nuri Guntekin nutqidagi stilistik imkoniyatlarini boshqa adiblar nutqi bilan qiyoslab kuzatish orqali ularning badiiy uslub o‘ziga xosligini ta'minlashdagi o‘rni yorqinlashtirildi;

- metafora, ramz, kinoya kabilar zamonaviy tushunchalar asosida ta'riflandi, tasniflandi;

Tadqiqotning tarkibi. BMI ishning umumiy tavsifi, kirish, 2 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I BOB. LINGVOPOETIK VOSITALAR VA ULARNING TURLARI HAQIDA

1.1. Fonetik vositalar.

Tilning material tomoni tovushlar bo'lganligi uchun tildagi so'zlar, iboralar, gaplar nutq tovushlari vositasida shakllanadi va yuzaga chiqadi.

Nutqdagi fonetik vositalar ham ba'zi o'rinlarda uslub yaratuvchi vositaga aylanishi mumkin.

Odatda, badiiy adabiyotda ko'proq lirik asarlarda tovushlar, urg'u va ohang hissiy ta'sirchanlikni oshirishda muhim stilistik vosita bo'ladi. Lekin ba'zan nasriy asarlarda ham fonetik vositalar uslubiy bo'yoqdorlikni yuzaga chiqarishi mumkin.

"Nutq tovushlaridagi emotsionallik, ta'sirchanlik, talaffuzdagi jarangdorlik, eshitishdagi yokimlilik, ularning badiiy qo'llanish qoidalari, estetik roli fonetik stilistikaning o'rganish obyekti"³.

Rus tilshunosligida L.V.Shcherba, R.I.Avanesov, M.V.Panov, L.R.Zinder va boshqalarning asarlarida fonostilistikaga oid masalalar atroflicha o'rganilgan. O'zbek tilshunosligida ham bu masala yoritilmoqda.

Fonetik uslubiy vositalar og'zaki nutqda to'laroq yuzaga chiqadi, yozma nutqda esa uning ayrim xususiyatlarinigina ifodalash mumkin, holos. Lekin shunday bo'lsa-da, Rashod Nuri Guntekin asarlarida fonetik vositalarning uslubiy vazifa bajarib, matnning hissiy ta'sirchanligini oshirishi o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

Avvalo, Rashod Nuri Guntekin hikoyava romanlaridagi ohangxarakteri haqida fikr yuritish kerak bo'ladi. Boisi, yozuvchi asarlarida nasriy bayon she'riyat bilan yaqinlashdiki, "Bir xotin dushmani" romanida ritm, ohangdorlik eng muhim omillardan biri bo'lib qoldi. Adibning o'ziga xos ifoda usuli, individual bayon tarzi

³ Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. Т., Ўқитувчи, 1985. Б. 88.

ham aynan ana shu ohangdorlikda ko‘rinadi. Shu sababli bu xususiyat alohida tadqiqot manbai bo‘la oldi

Xalq og‘zaki ijodiga xos ko‘p ma'nolilik, xalq qo‘shiqlariga yaqinohangdorlikni adib o‘z asarlariga shunday ustalik bilan singdirib yuborganki, natijada adabiy til bilan xalq og‘zaki ijodi va jonli xalq tilining mo‘tadil qorishiq holdagi, faqat Rashod Nuri Guntekingagina xos bo‘lgan jozibali ifoda yo‘sini paydo bo‘lgan.

M: "Ne yapar yapar, bugünlerde bir bahane uydurup kendini İstanbul'aatar.
(19-b)

(Nima qilsa qiladi, shu kunlarda bitta bahona o‘ylab topib o‘zini Istanbulga otadi.)

Matnda poeziyadagi kabi har bir gapni alohidaqatorga yozish orqali ham ohangni ifodalash maqsad qilib olingan, ya'ni har bir qatorpauza bilan o‘qilsa, asarning musiqiyliigi, ta'sirchanligi ortadi.

M: Hepsinde aynı fikirler, aynı emeller, aynı iddialar...

Nihayet rolleri sahnede öteberi götürüp getirmek, kalabalık yapmaktan ibaret gibi görünen üçüncü, dördüncü derecede figüranlar sınıfı...(42-43-b)

(Barchasida aynı fikrlar, aynı amallar, aynı o‘ylar...)

Tovushlarni cho‘zib talaffuz qilish orqali ma'no kuchayishi, ta'kid, ajablanish, xayajon, kinoya kabi turli ma'no nozikliklari ifodalanishi mumkin. So‘zlovchi tovushlar vositasida muayyan bir ma'no bo‘yoqdorligini ifodalamoqchi bo‘lsa, tinglovchi ham ma'noni tovushlar vositasida qabul qiladi. Shuning uchun so‘z tarkibidagi biror tovushning cho‘zilishi, almashtirilishi, tushirib qoldirilishi kabi hodisalar ma'noga ta'sir qilishi mumkin.

Lekin Rashod Nuri Guntekinning “Bir xotin dushmani” romanida bunday holatga duch kelinmaydi.

Soʻz tarkibidagi biror tovushning talaffuzda oʻzgarishi fonetik hodisa boʻlganligi uchun uni aynan tabiiy holda ifodalab boʻlmaydi, shuning uchun yozuvda buni ifodalashda unli harfni 2-3 marta yozish orqali koʻrstishga harakat qilinadi. Soʻzdagi unli tovushlarni choʻzib talaffuz qilish orqali maʼnoni kuchaytirish, taʼkid, ajablanish, xayajon, olqish, yalinish, erkalash kabi konnotativ maʼnolarni ifodalash, tinglovchiga yoki oʻquvchiga nisbatan taʼsirchanlikni orttirish mumkin.

1. *Bir lahza koʻzlari olayib turdi-da, koʻksidan shamol gʻuvurini ham, oʻz vujudini ham larzaga soluvchi bir nido otilib chiqdi: - Oyi-i-i!*⁴
2. *Qiziq onasining qoʻli muzdek edi!*
*- Oyi! Oyijo-on! – dedi hayqirib. Keyingi soʻzlar boʻgʻzidan yigʻi aralash otilib chiqdi. – Oyi-i!*¹⁴

Badiiyadabiyotda undosh tovushlarning choʻzib talaffuz qilinishidan uslubiy vosita sifatida foydalanish holatlarini ham kuzatiladi. Bunda ham his-tuygʻuning ortiqchiligi, kuchaytirish, taʼkidlash, soʻroq, taajjub kabi maʼnolar ifodalanadi.

Alohida til bosqichida boʻlgan lingvostilistika oʻzining aniq birliklariga ega boʻlmay, til birliklariga u yoki bu ekspressiv maʼno berish bilan chegaralanadi... Odatda, tildagi biror stilistik xususiyat leksik yoki grammatik jihatdan toʻla namoyon boʻlmasa, uni fonetik jihatdan shakllantirish natijasida toʻldiriladi⁵.

Badiiy asarlarda personaj nutqida fonetik oʻzgachalikni uslubiy vosita sifatida qoʻllash asar qahramonining emotsional holatiga badiiy boʻyoq berish, tasvirning taʼsirchanligini oshirishda asar badiiyligini taʼminlovchi fonostilistik asoslardan biri hisoblanadi. Nutqda bir tovushni ikkinchisi bilan almashtirish ham uslubiy vazifa bajaradi. Soʻzdagi tovushlarni toʻgʻri talaffuz qila olmaslik, biri oʻrnida ikkinchisini qoʻllash, koʻpincha, bolalar nutqiga xos. Yozuvchilar bolalar nutqi uchun

⁴Hoshimov O. Oʻzbeklar. Toshkent. “Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaʼa ijodiy uyi” 2007. 17-bet. ¹⁴Keyingi misollar ham shu kitobdan olindi va olingan misollarning betlari koʻrsatiladi. 38-b.

⁵ Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси, Т., 1990. Б. 16.

xarakterli bu xususiyatni o'z asarlarida berish orqali tasvirning real, jozibali chiqishiga, ular nutqini individuallashtirishga erishadilar. A.Qahhor o'zining "Bemor" hikoyasida onasidan juda yosh yetim qolayotgan bola nutqida r va y tovushlarini almashtirib ishlatadi va nutq ta'sirchanligini oshiradi: Xudoyo, ayamdi daydiga da'vo beygin...⁶

1.2.Morfologik vositalar

Ma'lumki, morfologik usul bilan ekspressivlikni hosil qilishda maxsus so'z shakllari va grammatik ma'no vazifasi mavjud bo'lgan so'z shakllaridan foydalanamiz. O'zbek tilida ot va fe'l so'z turkumlari shakllarga boyligi hamda boshqa so'z turkumlarida shakllar hosil qilish birmuncha chegaralanganligi bois, ekspressiv-emotsionallikni hosil qilishning morfologik usuli asosan ot va fe'l so'z turkumiga xosdir.

Misol qilib oladigan bo'lsak, yozuvchi O'tkir Hoshimov asarlarida ham ba'zan subyektiv baho shakllari, ba'zan kichraytirish-erkalash shakllari deb yuritiladigan ot so'z turkumi yordamida emotsional-ekspressivlikni hosil qiluvchi –cha, - choq (chak), -jon, -xon, -oy singari qo'shimchalar yordamida hosil qilingan shakllarni uchratish mumkin. Bu qo'shimchalar bilan faqatgina kichraytirish-erkalash ma'nolari emas, balki shu bilan birgalikda ijobiy va salbiy munosabat, suyish, mensimaslik, tahqirlash, hurmatlash, e'zozlash kabi ma'nolar yuzaga keladi.

Salbiy munosabat:

- Nega xotin kishini haqorat qilasiz, yigitcha? – dedi sof rus tilida. Biroq bu safar sizlab gapirdi. – Nima, akasimiz, qudasimisiz?

Ijobiy munosabat:

⁶ Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. Т., Ўқитувчи, 1985. Б. 91.

Meni Rais buvaning o'g'li deb o'yladi, chog'i, ogohlantirdi. – Mana, yigitcha, dadangizga aytib qo'ying. Bunaqa gaplarni baqirib aytmaydi odam. Gostinitsa – nozik joy. Bunaqa ishlar imi-jimida qilinadi...

Bu misollardagi salbiy munosabatda mensimaslik, tahqirlash ifodalari aniq sezilib turibdi. Misollarda bu qo'shimchanning vazifasi kichraytirish ma'nosini ifodalash emas. Ijobiy munosabatda kichraytirish ma'nosi anglashilayotgandek tuyuladi, lekin bu misolda –cha qo'shimchasini qo'llashdan maqsad yigitning kichkinaligini ifodalash emas, balki yigitga nisbatan ijobiy munosabat ham ifodalangan. Xuddi shu shaklning o'zi vaziyat va gap ohangiga ko'ra salbiy munosabat, ya'ni kesatish ma'nosini ham ifodalab kelishi mumkin.

Rashod Nuri Guntekinning “Bir xotin dushmani” romanida munosabatlar bunday qo'shimchalar orqali berilmagan. Zotan, bu asarda mensimaslik holatlariga duch kelinmaydi.

Borliqdagi jamiki narsalar turli hajmga ega bo'ladi. Masalan, ularning kattasi ham, kichigi ham bo'ladi. Lekin ularning kichigini ifodalash uchun shu narsani bildiruvchi so'z –cha affiksli shaklda qo'llanavermaydi. –cha affiksi juda sanoqli so'zlardagina ekspressiv-emotsional munosabat ifodalashi mumkin va kerak bo'lgan hollardagina qo'llaniladi⁷.

Otning egalik shakllarini matnda maxsus qo'llash bilan ham ekspressivemotsionallik ifodalanadi. Birinchi shaxs birlik shakli qarindoshlikni ifodalovchi so'zlarda, ya'ni undalmalarda qo'llanganda, suyish, ardoqlash, erkalash kabi ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi.

Shuningdek, egalik qo'shimchasi salbiy ma'no ifodalaydigan so'zlarga qo'shib, bu so'zlarga erkalash, yaxshi ko'rish ifodalarini qo'shadi

Borliqdagi jamiki narsalar turli hajmga ega bo'ladi. Masalan, ularning kattasi ham, kichigi ham bo'ladi. Lekin ularning kichigini ifodalash uchun shu narsani

⁷Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. - Toshkent: Fan, 1983. – B. 45.

bildiruvchi soʻz –cha affiksli shaklda qoʻllanavermaydi. –cha affiksi juda sanoqli soʻzlardagina ekspressiv-emotsional munosabat ifodalashi mumkin va kerak boʻlgan hollardagina qoʻllaniladi⁸.

Otning egalik shakllarini matnda maxsus qoʻllash bilan ham ekspressivemotsionallik ifodalanadi. Birinchi shaxs birlik shakli qarindoshlikni ifodalovchi soʻzlarda, yaʼni undalmalarda qoʻllanganda, suyish, ardoqlash, erkalash kabi maʼnolarni ifodalashga xizmat qiladi.

Badiiy nasriy matnni kuzatar ekanmiz, personajlar nutqining jonli va taʼsirli chiqishida ijodkor imo-ishoralardan, maʼno ifodalovchi turli gavda harakatlaridan, ovozning sifatli har xilliklaridan, hissiyotni ifodalovchi turli mimik oʻzgarishlar ifodasidan foydalanganini koʻramiz. Bu kabi nutqiy-ishoraviy muloqot badiiy nasriy matnda remarkalar yordamida beriladi⁹.

Sara – (telefonda) Sara Hanimʼi mi istirorsunuz? Sara benim efendim.

(Sara honimni chaqiryapsizmi? Sara menman afandim)

Ferhan – O halde ben kimim?

(Unday boʻlsa men kimman?)

Sara – Herhalde teklifsiz bir arkadař olacaksınız... Fakat sesinizi alamadım... Daha dođrusu bu seste bir arkadařım var ama řimdi uzakta... Adanaʼda... Adana ile henüz telefon muhaberesi bařlamadı zannederim.

(Har holda kutilmagan doʻstim boʻlsangiz kerak... Lekin ovozingizni tanimadim... Aniqrogʻi bu ovoz bir doʻstimning oboziga oʻxshaydi-yu, ammo hozir uzoqda... Adanada... Adana bilan hamon telefon aloqasi oʻrnatilmagan bilishimcha.)

⁸Abdullayev A. Oʻzbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. - Toshkent: Fan, 1983. – B. 45.

⁹Saidxonov M. Badiiy matn kommunikativ vositasifatida // Oʻzbek til va adabiyoti, 2009. № 5, 78-bet.

Ferhan – Sara...

Sara – (hafif bir feryat ile) Ferhan... Şüphem kalmaı... İstanbul'a geldin öyle mi? (9-b)

((Ohista bir hayqiriq bilan) Ferhan... Shubham qolmadi... Istanbulga kelding, shundaymi?)

Ferhan – (telaşla) Ne söylüyorsun? Otomobil kazasına filan mı uğradın?

((shoshilib) Nima deyapsan? Avtohalokatga uchradingmi?)

Sara – (gülerek) Hayır hayır... (10-b)

((kulib) Yo 'q Yo 'q...

Sara – Cevap vermiyorsun... Ferhan, Ferhan... (kendi kendine) Matmazel... Konuşuyorduk... Matmazel... Matmazel (bir dakika bekledikten sonra nevmidane telefonu bırakır) ah bu bizim telefonlarımız... (16-b)

(Javob bermayapsan... Ferhan... Ferhan... (o 'z-o 'ziga) Madmazel... Gaplashayotgandik... Madmazel... Madmazel (bir daqiqa kutgach, jahl bilan telefonni qo 'yadi) oh bu bizning telefonlarımız...)

Shaxs-son ma`nosiga ega bo`lgan til birliklarini o`z ma`nosidan boshqa ma`noda qo`llash orqali ekspressivlikni ifodalash morfologik usulning ko`rinishlaridan biridir. Mag`rurlanish, kesatish, kamsitish, hurmatlash, hurmatsizlik kabi ijobiy yoki salbiy ma`nolarni hosil qilishda ko`plikdagi sonni ifodalovchi so`z shakllarini birlik sonda qo`llash mumkin. Masalan, ko`plik shaklida kelgan birinchi shaxsdagi fe`lni birlik son o`rnida qo`llash nokamtarlik, o`zini baland olish, kesatish kabi ma`nolarni hosil qiladi.

Rashod Nuri Guntekin qahramonini o`zi to`g`risidada 3-shaxsda gapirtirish orqali, asarini yanada chiroyli va ta`sirchan bayon etishga erishgan. Bu orqali asar

qahramoni bo'lgan Sara o'ziga, o'z chiroyiga yuksak baho berishini, atrofdagilarni doimiy e'tiborida bo'ladigan tantiq qiz ekanligini yorqin ifodalab bergan:

Zavallı Sara leyleğin yuvadan attığı yavrulara döndü...(44-b)

(Bechora Sara laylak inidan otgan polaponlarga aylandi...)

Sara bir köy kızı gibi sade yaşıyor ve mütemadiyen seni düşünüyor. (46-b)

(Sara bir qishloq qizi kabi sodda hayot kechirmoqda ve tinimsiz seni o'ylamoqda.)

...Şımarık Sara genç kızlar sırasına geçtikten sonra ilk defa böyle bir muameleye uğruyordu. Bazı gizli güzellikler vardır ki ağır tesirli zehirler gibi yavaş yavaş kendini gösterir, tamamıyla anlaşılincaya kadar aylar, yıllar geçer. Sara'nın güzelliği bu cinsten değildi...

Sara bu beğenilmeyi bir hak, güzelliğine karşı herkesin vermeye mecbur olduğu bir vergi telakki etmeye alışmıştı...(60-b)

(Erkatoy Sara yosh qizlar safiga qo'shilgandan keyin birinchi marta bunday muomalaga duch kelyapdi. Bazi yashirin go'zalliklar borki ag'ir tasirli zaharlar kabi sekin-sekin o'zini ko'rsatadi, tamomila bilinguncha oylar, yillar o'tadi. Saraning go'zalligi bu turdan emas edi)

Ba'zida birlikda qo'llanuvchi ot so'z turkumi ham ko'plik qo'shimchasini qabul qiladi va shu so'zning ma'nosi kuchaytirishga erishiladi.

Ma'lumki, ikkinchi va uchinchi shaxs ko'plik shaklining hurmat ma'nosi uchun qo'llanishi hozirgi o'zbek adabiy tili uchun me'yoriy holatdir, ammo bu shakllar hurmatsizlik, haqorat, mazax singari ma'nolarni ifodalashi maxsus ohang va holatga bog'liqdir.

Biz nasıl o vakitki hafif, delişmen kız çocukları kaldıksa Kerim Bey de o vakitki saf ve ateşli mektepli kalmış. (116)

Rashod Nuri Guntekin so‘roq qo‘shimchasini o‘z o‘rnida qo‘llamaslik orqali gapning ta’sirchanligini oshirgan, unga hayratlanish, ajablanish kabi ma’nolarni yuklagan:

Acaba kadın düşmanına ilk hücumlar tesirini göstermeye mi başlamıştı?
(107-b)

(Ajabo! Xotin dushmaniga ilk hujumlar tasirini korsata bo‘shlabdi.)

- Hey gidi talih, hey... Nereye gitsem seninle başbaşa mı kalacağız a hanım?
demiş. (135-b)

(Hay ketdi omad, hay...Qayerga ketsam sen bilan yolg‘iz qolamizmi a honim?)

- Sizden bunu mu beklerdim Ziya Bey? (138-b)

(Sizdan shuni kutganmidim Ziyoy Bey?)

- Gitmeniz bu kadar yakın mı Sara Hanım?

(Ketishingiz shunchalik yaqinmi Sara honim?)

- Üç dört gün sonra...

(Uch-to‘rt kundan keyin...)

- Üç dört gün sonra mı? Demek bu kadar yakın? (139-b)

(Uch-to‘rt kun keyinmi? Demak, shunchalar yaqin?)

Sabırsızlıkla yolunu bekleyen Sara’ya şiirsiz bir spor müsabakasını tercih etmeseydin böyle mi olacaktı? (143-b)

Bir so‘roq olmoshlarining har bir gap tarkibida takrorlanishi gapdan ifodalangan so‘roq mazmunini kuchaytirishga xizmat qilgan:

Har qanday fikr nutqda ifodalanar ekan, so‘zlovchi faqat muayyan axborotni tinglovchiga yetkazishnigina emas, balki bu fikrning tinglovchiga qay darajada ta’sir etishini ham deyarli hamisha e’tiborda tutadi. Shuning uchun nutqning

ifodaliligi, ta'sirchanligini, ya'ni ekspressivligini ta'minlovchi vositalarga malakali so'zlovchi yozuvchi doimo diqqat bilan qaraydi. Ma'lumki, til ekspressivlikni ifodalashning xilma-xil imkoniyatlariga ega. Bunday imkoniyatlarning kenglik darajasi tilning boyligini ham ko'rsatadigan o'ziga xos o'lchovlardandir. Tilshunoslikda ekspressivlikni til taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchidir degan fikr ham mavjud. Til haqidagi fanda tilning kommunikativ va yana boshqa vazifalari qatorida uning ekspressiv vazifasi ham alohida ajratiladi. Albatta, bu vazifa, ayniqsa, badiiy matnda yanada katta ahamiyat kasb etadi¹⁰.

1.3. Rashod Nuri Guntekinning “Bir xotin dushmani” romanida morfologik shakllarning qo'llanilishi

Rashod Nuri Guntekinning “Bir xotin dushmani” romanida ekspressivlikni ifodalashda sintaktik birliklarning ham maxsus o'rni bor. Masalan, asarida adib ritorik so'roq gaplardan unumli foydalangan. Ma'lumki, ritorik so'roq gaplar sof so'roq ifodalamaydi, ya'ni bu turdagi gaplarda so'zlovchi uchun biror noma'lum bo'lgan voqea-hodisa haqida bilish istagi bo'lmaydi. “... ritorik so'roq gap javob talab qilmaydi va mohiyatan darak, shaklan so'roq gap hisoblanadi.¹¹” Gap grammatik jihatdan so'roq shaklida bo'lsa ham, tinglovchidan tegishli javob talab qilinmaydi. Ritorik so'roq gaplarda xuddi darak gaplardagi kabi voqea-hodisalar haqidagi tasdiq yoki inkor tarzida hukm ifodalanadi. Ritorik so'roq gap xuddi darak gap kabi axborot tashish vazifasini bajaradi. Farqi shundaki, ritorik so'roq gaplarda emotsional-ekspressivlik xususiyati yuqoriroq bo'ladi.

Sara – Evet... Annem öbür gün kendi kendine gidiyor...

(Ha... Onam bir-ikki kun keyin o'zi ketadi...)

Ferhan – Hayret edilecek şey... Ya sen? (11)

¹⁰ Jamoliddinova D. Parantez birliklarning ekspressiv sintaksisdagi o'rni // Til tizimi va nutqiy faoliyat. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Samarqand, 2010. 98-b.

¹¹ Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. 382-b.

(hayratlanarli... Sen-chi?)

Shuningdek, ba'zi o'rinlarda so'roq gaplarning bir xil so'roq olmoshi bilan boshlanishi va ketma-ket so'roq gaplarning tizilishi ham so'roq gaplarga emotsiya qo'shib, ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qilgan.

Bu o'rinda bir xil so'roq olmoshlarining takrorlanishi bilan birga yuqorida ta'kidlanganidek, so'roq gaplarning ketma-ket kelishi ham muhim ahamiyatga egadir. Chunki aytib o'tganimizdek, so'roq gaplarning ketma-ket kelishi hishayajonni ifodalasa, bu so'roq gaplarining bir xil so'roq olmoshlari bilan boshlanishi bu his-hayajonni yana-da kuchaytirish uchun xizmat qilgan.

Shuningdek, ekspressivlikning ifodalanishida gapning takrorlanishi ham o'ziga xos o'rinni egallaydi.

Bu tipdagi gaplarning ko'pincha, takroriy qismi to'liqsiz gapga teng keladi.

Bu holat, ya'ni takrorlanuvchi qismning ba'zi bo'laklari tushirilishi ixchamlikka harakat qilish bilan belgilanibgina qolmay, gap tarkibidagi ba'zi bo'lak va u orqali ifodalangan mazmuni alohida ajratib, ma'nosini bo'rttirib ko'rsatish, shu bilan birga o'quvchi e'tiboriga havola qilinayotgan axborotga diqqatni kuchaytirib tortish kabi uslubiy vazifalarni ham bajaradi. Shunday qilib, Yozuvchi O'tkir Hoshimov asarlarida gap takrorining ikki xil ko'rinishi mavjud:

- 1) to'liq takror;
- 2) qisqa takror;

Takroriy gaplarning bu ikki xil ko'rinishi bir-biridan grammatik tuzilishi bilangina farq qiladi. Ular bajarayotgan uslubiy vazifa esa deyarli farq qilmaydi.

Bu xil takroriy gaplarning har ikki xil ko'rinishida ham oddiy gaplardan farqli tarzda, axborot bir xil, ya'ni ekspressivlik bo'yog'i bilan ifodalanadi.

- Sara Hanım... Köyümüzde müthiş bir sükse kazandınız...

(Sara honim... Qishlig'imizda kutilmagan obro' qozondingiz...)

- *Öyle mi efendim?*

(Shundaymi afandim?)

- *Ahali oraya denizden ziyade sizi seyretmek için toplandı...*

(Aholi bu yerga dengizdan ziyoda sizni ko‘rish uchun to‘plandi...)

- *Öyle mi efendim? Hiç farkında değilim...*

(Shundaymi afandim?)

- *Denize bakacak yere arkanıza dönüp baksaydınız neler görecektiniz.*

(Dengizni tomosha qilish o‘rniga orqangizga qarangiz edi, nelarning guvohi bo‘lardingiz.)

- *Öyle mi efendim? (21-22-b)*

(Shundaymi afandim?)

Gapning takrorlanishida keyingi qism har doim ham to‘laligicha saqlanavermaydi. Bu qismlar, ko‘pincha, qisqargan, ya’ni elliptik gap tarzida takrorlanib qo‘llanadi. Chunki, bu holatda birinchi gapda zarur bo‘laklarning hammasi qatnashgan, ular orqali ma’lum axborotni ifodalagan bo‘ladi. Gapning takrorlanuvchi qismida esa avval aytilgan hamma bo‘laklarning ham takrorlanishiga talab bo‘lmaydi. Bu holatda so‘zlovchi ma’no jihatdan ahamiyatli ekanligini nazarda tutgan bo‘lak keyingi gapda ham takrorlanishi shart:

- *Demek senin kimsen yok ha?*

(Demak sening hech kimning yo‘q a?)

- *Kimsem yok...(159)*

(Hech kimim yo‘q...)

- *Gitmeniz bu kadar yakın mı Sara Hanım?*

(Ketishingiz shunchalik yaqinmi Sara honim?)

- Üç dört gün sonra...

(Uch-to 'rt kundun keyin...)

- Üç dört gün sonra mı? Demek bu kadar yaqin? (139-b)

(Uch-to 'rt kun keyinmi? Demak, shunchalar yaqin?)

Bu xildagi gap takrorini gap bo‘laklarining takrorlanishidan farqlash kerak. Takroriy gaplar shakliy jihatdan gap bo‘laklariga teng kelsa-da, mazmun jihatdan birinchi gapga teng keluvchi sintaktik birlikdir. Takroriy gap birinchi gap bilan yoki uning qismlari bilan grammatik aloqaga kirishmaydi.

Ayrim sintaktik vositalar o‘z tabiatiga ko‘ra ekspressiv-tasviriy vosita hisoblansa, ayrimlari faqat kontekstda ekspressivlik ifodalaydi. Ekspressiv-tasviriy vositalar, asosan, badiiy-poetik, publitsistik va notiqlik uslublari uchun xarakterlidir. Bu shu uslublarning tabiati bilan, ularda obrazlilik, emotsional-ekspressivlikning kuchliligi bilan bog‘liqdir¹².

1.4. I bob yuzasidan xulosa

I bob yuzasidan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, Rashod Nuri Guntekin asarini tadqiq qilish jarayonida “Bir xotin dushmani” romani o‘ziga xos tilde yozilganini guvohi bo‘ldik. Adibning mahorati morfologik va sintaktik vositalardan ustalik bilan foydalanganligi o‘quvcigini asarga nisbatan mehrini, o‘qish ishtiyoqini bir muncha oshiradi. Qahramonlar xarakteri mohirona ochib berilgan, bunda lingvopoetik vositalardan ustalik bilan foydalanilgan. Biz buni misollar yordamida ko‘rib chiqdik.

¹² Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983. 143-b.

Takroriy gaplar shakliy jihatdan gap bo‘laklariga teng kelsa-da, mazmun jihatdan birinchi gapga teng keluvchi sintaktik birlikdir. Takroriy gap birinchi gap bilan yoki uning qismlari bilan grammatik aloqaga kirishmaydi.

Gapning takrorlanishida keyingi qism har doim ham to‘laligicha saqlanavermaydi. Bu qismlar, ko‘pincha, qisqargan, ya’ni elliptik gap tarzida takrorlanib qo‘llanadi. Chunki, bu holatda birinchi gapda zarur bo‘laklarning hammasi qatnashgan, ular orqali ma’lum axborotni ifodalagan bo‘ladi. Gapning takrorlanuvchi qismida esa avval aytilgan hamma bo‘laklarning ham takrorlanishiga talab bo‘lmaydi.

Rashod Nuri Guntekinning “Bir xotin dushmani” romanida ekspressivlikni ifodalashda sintaktik birliklarning ham maxsus o‘rni bor. Masalan, asarida adib ritorik so‘roq gaplardan unumli foydalangan. Ma’lumki, ritorik so‘roq gaplar sof so‘roq ifodalamaydi, ya’ni bu turdagi gaplarda so‘zlovchi uchun biror noma’lum bo‘lgan voqea-hodisa haqida bilish istagi bo‘lmaydi.

Ikkinchi bob

RASHOD NURI GUNTEKIN “BIR XOTIN DUSHMANI”ROMANINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI.

2.1. Rashod Nuri Guntekinning “Bir xotin dushmani”romanida sinonimlarning uslubiy xususiyatlari.

Sinonimlar – talaffuzi, yozilishi har xil, birlashtiruvchi ma’nosi birxil ya’ni umumiy bo’lgan, qo’shimcha ma’no nozikligi, emotsional bo’yog’i, qo’llanishi kabi bir qator xususiyatlari bilan o’zaro farqlanadigan so’zlardir. Ana shunday umumiy (birlashtiruvchi) ma’no bilan o’zaro bog’lanuvchi so’zlar guruhi sinonimik qatorni tashkil etadi. Sinonimik qator esa ikki yoki undan ortiq so’zdan iborat bo’lishi mumkin. Ma’nodosh so’zlar tilning lug’aviy jihatdan boylik darajasini ko’rsatib beruvchi o’ziga xos vositadir. Tilda ma’nodosh so’zlarning ko’p bo’lishi tilning estetik vazifasini yanada to’liq bajara olishini osonlashtiradi. Bu juda qadim zamonlardan beri anglangan, idrok etilgan va o’rganilgan.

Yozuvchilar tilimizdagi ma’nodosh so’zlar ichidan tasvir maqsadi va ruhiga muvofiq keladigan aniq so’zni topib o’z asarlarida qo’llashga harakat qiladilar, shu tariqa, qahramonlar ruhiyati hamda tasvir obyektining eng kichik qirralarigacha real ko’rsatib berishga intiladilar. Badiiy matndagi ma’nodosh so’zlar tahlilida, asosan, ikki jihatga e’tiborni qaratish zarur. Ulardan biri muallifning ikki yoki undan ortiq ma’nodosh so’zdan ifodalanayotgan mazmun uchun eng maqbul birini tanlash bo’lsa, ikkinchisi ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq ma’nodosh birliklarni badiiy tasvir maqsadiga uyg’un holda qo’llashi masalasidir.

Tilshunoslikda ma’nodoshlikning, asosan, uch turi farqlanadi, ya’ni:

- leksik ma’nodoshlik;
- frazeologik ma’nodoshlik;
- leksik-frazeologik ma’nodoshlik.

O'zaroma' nodoshlikqatorinihosilqiluvchiso'zlar tushunchaning belgisini turlida rajabilan ifodalashi, ba'ziso'zlar belginin normal darajabilan (neytral) ifodalasaba'zilar ikuchli darajasini ifodalashim mumkin. Sinonim so'zlar emotsional bo'yoqli va emotsional bo'yoqsiz so'zlarni tashkil etib, ular yana salbiy emotsional va ijobiy emotsional so'zlarga bo'linib ketishi mumkin.

- *Ta kendisi, dedi, zaten bir ismi de Kaya balığıdır. Fakat bu ismi ona yüzücülüğünden ziyade çehresi için vermişlerdir. Yüzünü görerseniz tıpkı kaya balığına benzer.*

(Aynan o'zi, dedi, zotan bir ismi ham qoya balig'i. biroq, bu nomni unga suzuvchiligidan ko'proq yuzi uchun berganlar. Yuzini ko'rsangiz huddi qoya balig'iga o'xshaydi.)

- *Asıl ismi Ziya'dır. Ama hemen hemen kimse bilmez... Onu Homongolos diye tanirlar.*

(Asl ismi Ziyó. Ammo, deyarli hech kim bilmaydi... Uni Homongolos deb taniydilar.)

- *Ne münasebet?*

(Nima sababdan?)

- *Bilmem gördünüz mü? Homongolos bir sinema kahramanıdır... Muhayyel bir kaşif suni bir adam yapmaya muvaffak olur... bu makine bir çok cihetlerden insana faiktir... hasılı ideal bir insan. Fakat büyük kaşif bu suni adama yalnız bir hassayı vermeye muvaffak olamamıştır: Kalp ve his...*

(Bilmadim ko'rganmisiz? Homongolos film qahramoni/ bir kashfiyotchi bir odam yasashni uddasidan chiqadi. Bu mashina bir qancha jihatlarda insondan ustundir. Biroq kashfiyotchi bu sun'iy odamga faqat bir unurni berishga muvaffaq bo'lmagan: Qalb va His)

- *Bunun için mi ona Homongolos diyorlar?*

(Shuning uchun uni Homongolos deydilarmi?)

- Evet... Bu noktai nazardan Homongolos hakiki bir makineden farksızdır...

(50-51)

(Ha... Shu nuqtai nazardan Homongolos haqiqiy bir mashinadan farq qilmaydi.)

...- Bende kadın düşmanını görmek için bir merak uyandı, dedim. Acaba nereye gitti?

(Menda xotin dushmanini ko'rish uchun qiziqish paydo bo'ldi. Qiziq, qayerga ketdi?)

- Bilinmez ki... Canavar gibi bir adam... (53)

(Bilib bo'lmaydi... Yovvoyi tabiatli...)

- Nereli olacak... Bizim hemshetri... Böyle antika malları İstanbul'dan gayri hangi toprak yetiştirir... (36)

... Sporcu Behire'yi adeta bir yaralı gibi belinden tutarak getiriyordu... (101)

(Sportchi Behireni go'yo bir yarador kabi belidan tutib keltirayotgan edi...)

... Canavar bana bakmıyordu bile Nermin! (109)

(...Yovvoyi menga qaramasdi ham Narmin!)

... Behire bir eliyle Homongolos'un omuzuna sarılıyotgan, öteki eliyle bisikletini sürüklüyotgan. (101-102)

(Behire b'r qo'li bilan Homongolosning yelkasiga suyanib, boshqa qo'li bilan velosipedini sudrar edi.)

... Küçük şeytan rolünü öyle güzel oynuyotgan ki işin içyüzünü bildiğim halde ben bile telaşlanmaktan kendimi alamadım. (102)

(Kichik shayton rolini shunday chiroyli o'ynardiki, ishning aslini bilgan holda men ham havotirdan o'zimni tutib turolmadim.)

Yuqorida asl ismi Ziyo boʻlgan asar qahramonlaridan biri haqida taʼrif berilgan. Uning asl ismidan qochib boshqa nomlar bilan atalishining guvohi boʻlamizki, bu asar qahramoni ruhiyati va tashqi koʻrinishini yanada teranroq anglashimizga yoqdam beradi. Homongolos, Qoya baligʻi, yovvoyi, sportchi kabi nomlar qahramonga boʻlgan qiziqishimizni bir pogʻona oshiradi.

Maʼlumki, har bir lingvistik vosita badiiy nutqda nominativ vazifa bajarish bilan birgalikda uslubiy vosita ham boʻla olishi mumkin. Sintaktik figuralar jonli til tabiatidan kelib chiqadigan nutqiy hodisalar boʻlib, badiiy nutqda muayyan uslubiy maqsadni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Chunki badiiy asarda til birliklari muallif tomonidan kommunikativ taʼsir maqsadida tanlab olinadi va shu jarayonda adibning individual faoliyati namoyon boʻladi.

Soʻz leksik maʼnolarida paradigmatic munosabat semantik jihatdan qaralganda dastlab soʻzlar maʼno bir xilligi (sinonimiya) va maʼno qaramaqarshiligi (antonimiya) nuqtai nazaridan guruhlariga boʻlib tadqiq etilgan. Keyingi yillarda soʻz leksik maʼnolaridagi paradigmatic munosabatni semantik jihatdan eslatuvchi yana bir hodisa – lugʻaviy darajalanish (graduonimiya) hodisasi mavjudligi, unda soʻzlar maʼno farqlanishiga asoslanishi koʻpgina tadqiqotchilar tomonidan tadqiq etildi¹³.

Maʼlumki, har bir lingvistik vosita badiiy nutqda nominativ vazifa bajarish bilan birgalikda uslubiy vosita ham boʻla olishi mumkin. Sintaktik figuralar jonli til tabiatidan kelib chiqadigan nutqiy hodisalar boʻlib, badiiy nutqda muayyan uslubiy maqsadni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Chunki badiiy asarda til birliklari muallif tomonidan kommunikativ taʼsir maqsadida tanlab olinadi va shu jarayonda adibning individual faoliyati namoyon boʻladi.

Leksik sinonimiya maʼnolari bir xilligi, oʻzaro yaqinligi yoki oʻxshashligi hodisalariga asoslansa, graduonimiya esa farqlilik omillariga tayanadi. Demak, xulosa qilganda shunday fikr kelib chiqadi. Sinonimiya va graduonimiya hodisalari

¹³ Rahmonov G`. Sinonimlar qatorida graduonimiyaning ifodalanishi. Oʻzbek tili va adabiyoti. 2012-yil 3-son, 7172-b.

o‘zaro keskinfarqlanadi. Biroq shunga qaramay, ular o‘rtasida ma’naviy munosabat mavjud. Aslida sinonimlardan biri o‘rnida ikkinchisini kontekstual qo‘llash imkoniyati mavjud bo‘lsa, denotativ ma’nolarga asoslangan graduonimlar orasida darajalanish farqlari kuchli yoki kuchsiz bo‘lishi mumkin. Xuddi mana shu fikrimizni asardagi gaplar misolida keltirishimiz mumkin.

1. *Yardim ederseniz pek yakında hepimizin intikamı alınacak, dedim. (98-b)*

(Yordam bersangiz yaqinda hammamizning intiqomimiz olinadi.)

2. *Ara sıra durarak eliyle nişanlısına uzakta bir şeyler gösteriyor, onu lakırdıya tutuyordu. (49-b)*

(Ora-sira to‘xtab qo‘li bilan qallig‘iga uzoqda bir nimalar ko‘rsatar, uni gapga tutardi.)

3. *Bu geri kalmak, benimle konuşmak için bir manevra idi. (49-b)*

(Bu ortda qolish, men bilan suhbatlashish uchun bahona edi.)

4. *Remzi Bey uzun bir konuşma bahanesi çıktığı için memnun anlatmaya başladı... (50-b)*

(Remzi bey gaplashishga bahona topilganidan mamnun gapira boshladi...)

Yuqorida keltirilgan demek, lakırdıya tıtmak, konuşmak, anlatmak fe’llari sinonimik qatorni tashkil etib yozuvchining so‘z qo‘llash mahoratini ko‘rsatadi. Bu asarning yanada chiroyli yozilishiga sabab bo‘lgan.

Katta mahoratli yozuvchilarning badiiy til borasidagi ustunliklaridan biri shundaki, ular faqat tilda mavjud bo‘lgan tayyor ma’nodosh so‘zlardagina foydalanib kelmasdan badiiy tasvir ehtiyojiga ko‘ra ma’nodosh bo‘lgan so‘zlarni ham shunday qo‘llaydilarki, bu so‘zlar ham matnda xuddi ma’nodosh so‘zlar kabi idrok etiladi.

Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko‘zi o‘ngida aniq va to‘la gavdalantirishda frazeologik iboralarning ma’nodoshligidan keng foydalaniladi.

Sinonimik qatordagi soʻzlar nutqning biror turiga, uslubiga xosligi jihatidan ham oʻzaro farqlanishi mumkin.

Katta mahoratli yozuvchilarning badiiy til borasidagi ustunliklaridan biri shundaki, ular faqat tilda mavjud boʻlgan tayyor maʼnodosh soʻzlardagina foydalanib kelmasdan badiiy tasvir ehtiyojiga koʻra maʼnodosh boʻlgan soʻzlarni ham shunday qoʻllaydilarki, bu soʻzlar ham matnda xuddi maʼnodosh soʻzlar kabi idrok etiladi.

Sinonimik qatordagi soʻz hozirgi adabiy til nuqtai nazaridan eskirgan boʻlishi mumkin. Koʻp yoki oz qoʻllanishiga koʻra oʻzaro farqlanishi mumkin. Ifodalaydigan tushuncha doirasi keng boʻlgan, belgini normal darajada ifodalaydigan, emotsional boʻyoqqa ega boʻlmagan, hozirgi adabiy tilga mansub boʻlgan soʻz sinonim qatordagi boshqa soʻzlarga nisbatan koʻp qoʻllaniladi. Maʼnodosh soʻzlar badiiy adabiyotda muhim tasvirlash vositalaridan biri hisoblanib, yozuvchi ular yordamida qahramonlarning xarakter-xususiyatlarini, voqea-hodisalarni, manzaralarni, badiiy tasvirlarni aniq, ravshan va jonli qilib ifodalay oladi.

Maʼnodosh soʻzlar leksemalarni oʻrinsiz takror ishlatishga yoʻl qoʻymaydi, badiiy nutq uslubining ravonligini taʼminlaydi, jummalarning ixcham tuzilishiga keng yoʻl ochadi, semalarni oʻrganish jarayonida chuqur fikr yuritishga imkon beradi.

Nutqda, umuman olganda ogʻzaki va yozma nutqda sinonimlarning katta amaliy ahamiyati bor. Sinonimlar nutqiy taʼsirchanlikka asoslanib, kitobxonning soʻz boyligini oshiradi. Sinonimlar til lugʻat sostavining qanchalik boy va rang-barangligini koʻrsatuvchi belgilardan biridir.

Sinonimlar maʼno va qoʻllanish doiralariga koʻra uch xil: ideografik, stil va stilistik sinonimlar. Ideografik sinonimlar oʻzaro leksik maʼno ottenkalaribilan farqlansa, stil sinonimlari qoʻllanish doirasiga (nutqning turli stiliga mansubligiga), stilistik sinonimlar esa ekspressiv boʻyogʻiga (sinonimik qatorda asosiy, neytral soʻzga nisbatan ekspressiv ottenkaga egaligiga) koʻra farqlanadi.

Sinonimik qatordagi soʻzlar leksik maʼno qirrasini, uslubiy tomoni hamda pragmatik semasi bilan oʻzaro farqlanishidan kelib chiqib, tilshunos olim M. Mirtojiev ularni bir necha tipga ajratadi.

Kontekstual sinonimiya – til birligi sifatida oʻzaro sinonim boʻlmagan leksemlarning maʼlum kontekst doirasida (demak, nutq ichida) sinonimik munosabatga kiritilishi¹⁴. Katta mahoratli yozuvchilarning badiiy til borasidagi ustunliklaridan biri shundaki, ular faqat tilda mavjud boʻlgan, tayyor maʼnodosh soʻzlardangina foydalanib qolmasdan, badiiy tasvir ehtiyojiga koʻra maʼnodosh boʻlmagan sozlarni ham shunday qoʻllaydilar, bu soʻzlar ham matnda xuddi maʼnodosh soʻzlar kabi idrok etiladi. Kontekst doirasida sinonimlashish hodisasi ayniqsa muallif leksemasining nutqdagi qoʻllanishida koʻp uchraydi. Maʼlumki, muallif leksemasining sememasi tarkibida “yozuvchi”, “shoir”, “hikoyanavis”, “olim”, “ixtirochi” kabi qator semalar mujassamlangan. Demak, uning maʼno koʻlami ancha keng. Kontekst ichida esa muallif leksemasining shu semalaridan biri aktuallashadi, qolganlari reallashmaydi. Masalan, roman, hikoya kabi nasriy asarlar haqida gap ketganda muallif leksemasi faqat “yozuvchi” maʼnosida qoʻllanadi, demak, yozuvchi leksemasining kontekstual sinonimiga aylanadi, kontekstdan tashqarida esa bu ikki soʻz sinonim boʻla olmaydi, chunki ularning maʼno koʻlami oʻzaro teng emas.

2.2. Antonimlarning qoʻllanilishi

Maʼlumki, tilda zid maʼnoli soʻzlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligini, ekspressivligini, taʼsirchanligini taʼminlashda qulay vositalardan biridir. Shak-shubhasiz, sharq adabiyotida juda qadim zamonlardan buyon tildagi bu ifoda imkoniyatidan juda keng foydalanib kelingan. Chunki oʻsha paytlardan buyon yomonlik ustidan qozonilib kelinayotgan har qanday gʻalabalarda ziddiyatning turli koʻrinishlari mavjud. Shu bilan hayot oʻzining tarovatini

¹⁴ Jamolxonov H. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent, 2005 y.168-b.

yo‘qotmay kelmoqda. Mana shu ziddiyatlar orqali hayot qiziqarlidir. Yevropa tilshunosligida bu hodisa “antiteza” deb yuritiladi. Badiiy matnning lingvopoetik tahliliga bag‘ishlangan ishlarda zidlantirish, qarshilantirish atamalaridan foydalaniladi. Zid ma‘noli so‘zlarni yonma-yon qo‘llash orqali tushunchalar, belgilar, holatlar, obrazlar zidlantiriladi. Ma‘lumki, antonimiya hodisasi, asosan, bir so‘z turkumi leksemalari doirasida yuz beradi. Antonimlar, asosan, belgi anglatuvchi so‘zlarda uchraydi. Miqdor, vaqt, o‘rin, harakat-holat ma‘nolarini ifodalaydigan so‘zlarda zidlash ma‘nosi kam bo‘ladi. Shunga ko‘ra antonimlar sifat, ravish so‘z turkumlarida ko‘p uchraydi. Fe‘llarda antonim hosil etuvchi so‘zlar juda kam, son, olmosh, modal va yordamchi so‘zlarda umuman yo‘q.

Odatda, leksik, kontekstual yoki nutqiy zid ma‘noli so‘zlar bir-biridan farqlanadi. Bir so‘z bir ma‘nosida antonimga rga bo‘lishi, boshqa ma‘nolarida umuman antonimga ega bo‘lmasligi mumkin. Ba‘zi so‘z yasovchi affikslar ham antonimik juftlikni hosil qilishi mumkin.

Til birliklarining takrori natijasida yuzaga keladigan ifoda kambag‘alligi va rangsizligidan qochish uchun, tasvir obyektiga e‘tiborni jalb qilish uchun, ijobiy belgining darajama-daraja ortib borishini ifodalash kabi bir qancha turlarga bo‘linib ketadi.

Ma‘lumki zid ma‘noli so‘zlarning qo‘llanishi badiiy nutqning ifodaliligi, bo‘yoqdorligi, ta‘sirchanligini ta‘minlashda qulay vositalardan biri sanaladi. Sharq adabiyotida juda qadim zamonlardan buyon tildagi bu ifoda imkoniyatidan keng foydalanib kelingan. Zid ma‘noli so‘zlarni yonma-yon qo‘llash orqali tushunchalar, belgilar, holatlar, obrazlar zidlantiriladi. Odatda, lisoniy va kontekstual yoki nutqiy zid ma‘noli so‘zlar farqlanadi.

Tilshunoslikda antonimlar bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan.

Ularning til sathlaridagi o‘rni, mohiyati, me‘yor va vositalari o‘rganilgan. Kontekst tarkibida fakultativ tarzda yuzaga chiquvchi antonimlarni okkazional antonimlar sifatida baholash va ularning turli nutq uslublaridagi o‘ziga xos

lingvostilistik, semantik - ekspressiv xususiyatlarini o'rganish, ularning paydo bo'lish asoslarini tahlil etish rus tilshunoslari L.A.Vvedenskaya,G.E.Goncharenkolar tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da,¹⁵ hozirgacha o'zbek tilshunoslarining tadqiqot obyekti bo'lmagan. Ma'lumki, zidlash munosabati kontekstual-situativ xarakterda ham bo'ladi. Antonimik munosabat nutq situatsiyasida, ya'ni so'zlarni ma'lum kontekstda qo'llash orqali hosil bo'ladi. Bunday antonimlar kontekstual antonimlar deyiladi. Kontekstual antonimlar ko'pincha individual, ya'ni biror bir muallifga tegishli bo'ladi. Ba'zida mahoratli yozuvchilar qahramonlar ruhiyatidagi kontrastlikni bo'rttirib tasvirlash maqsadida muayyan bir kontekstual sinonimik qatordagi bir necha so'zni boshqa bir kontekstual sinonimik bir necha so'zga birdaniga zidlantiradilar. Ko'pincha badiiy asarda kontekstual antonimlardan tasvirning ta'sirchanligini oshirish maqsadida qo'llaydilar. Chunki unda lingvistik jihatdan noodatiylik kuchli bo'lib, ta'sir kuchi ular da odatdagilarga nisbatan kuchliroq bo'ladi.

Bunday zid ma'nolarni barqaror birikmalarda, ya'ni iboralar va maqollarda ham ko'plab uchratish mumkin. Yozuvchining tildan foydalanish mahoratini belgilashda badiiy nutq ifodaliligini qay darajada ta'minlay olganligiga e'tibor qaratiladi. Buni zid ma'noli so'zlarnio'z o'rnida, muayyan estetik maqsad bilan qo'llay olishidan ham aniqlasa bo'ladi.

Antonimik munosabat nutq situatsiyasida, ya'ni so'zlarni ma'lum kontekstda qo'llash orqali hosil bo'ladi. Bunday antonimlar kontekstual antonimlar deyiladi. Kontekstual antonimlar ko'pincha individual, ya'ni biror bir muallifga tegishli bo'ladi. Ba'zida mahoratli yozuvchilar qahramonlar ruhiyatidagi kontrastlikni bo'rttirib tasvirlash maqsadida muayyan bir kontekstual sinonimik qatordagi bir necha so'zni boshqa bir kontekstual sinonimik bir necha so'zga birdaniga zidlantiradilar. Ko'pincha badiiy asarda kontekstual antonimlardan tasvirning ta'sirchanligini oshirish maqsadida qo'llaydilar. Chunki unda lingvistik jihatdan

¹⁵ Baydadayeva G. Okkazonal antonimlarni vujudga keliruvchi obyektiv va subyektiv omillar// O'ETA, 2010-y, 2son, 92-b.

noodatiylik kuchli bo'lib, ta'sir kuchi ularda odatdagilarga nisbatan kuchliroq bo'ladi.

Antonimlar ma'nosi (sememasi) strukturasi hamma vaqt umumiy sema bilan birga differensial sema ham bo'ladi. Xuddi ana shu sema o'zaro zid bo'ladi. Shunday ekan, ikki so'zning antonim yoki antonim emasligini faqat ularning semema strukturasi ochish (komponentli tahlil) asosidagina to'g'ri belgilash mumkin bo'ladi.

Xullas, antonimlar bir-biriga zid tushunchalar birligini ifoda etish bilan tilda stilistik vosita sifatida qo'llaniladi va badiiy ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi, badiiy nutq uslubining ravonligini ta'minlaydi.

2.3. Iboralarning qo'llanilishi

Odatda, so'zlarning birikuv tufayli so'z birikmasi hosil bo'ladi. Bu so'z birikmalarining ba'zilari erkin bo'lsa, ba'zilari turg'un (barqaror) bo'ladi. *Oyoq uchida* birikmasi kontekstdan anglashilgan ish-harakatning imi-jimida, yashirincha, maxfiy bajarilganligini bildiradi. Birikma tarkibidagi har bir so'z o'z mustaqil ma'nosini saqlamagan, shunga ko'ra bu tarkibidagi so'zlari (komponentlari) barqaror, bo'linmas bir semantik birlikni hosil qilgan turg'un birikmadir. Frazologik iboralar nutq ko'rinishlariga qarab turli xil vazifada qo'llaniladi. Ilmiy va rasmiy nutqda, ko'pincha nominativ funksiyani bajaradi¹⁶.

Ba'zi iboralarda qonun hujjatlari tiliga ixtisoslashish, terminlashish ham uchraydi.

Bunday paytlarda frazema ma'nosida neytrallashish yuz beradi, uslubiy bo'yoq sustlashib, oxiri tushib qoladi¹⁷. Badiiy adabiyotda iboralardan foydalanish, qo'llash usullari turlichadir. Yozuvchilar tilimizda tayyor material hisoblangan

¹⁶ Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi. Toshkent "O'qituvchi" 1983. 69-71-b.

¹⁷ Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. "Talqin" 2005. 217-218-b.

iboralardan umumli foydalanibgina qolmay, o'zlari ham shular zamirida yangi iboralar yaratadilar. Bu jarayonda ularumumtil iborasi zamiridagi ma'noning yangicha talqinini ochish, iboraning leksik tarkibini o'zgartirish, uning semantikstilistikfunksiyalarini kengaytirish, iboraga yangicha majoziy va obrazli ma'nolar kiritish kabi usullardan foydalanadilar.

Ma'lumki, turk yozuvchilari asarlarida ham frazeologik birliklardan keng va umumli foydalaniladi. Bu asar mazmunini yanada go'zal tasvirlab berishga xizmat qiladi. Rashod Nuri Guntekinning "Bir xotin dushmani" asarida ham iboralardan umumli foydalanilgan.

Tilshunoslikda frazeologizmlar tuzilishi, leksik-semantik, funksional-uslubiy va sintaktik vazifalari, shuningdek, o'ziga xos shakllanish xususiyatiga ega bo'lgan tilning mustaqil birligi sifatida allaqachonlar tan olingan. Ular leksikadan yuqori, gapdan quyi sathdaturadigan til hodisasisifatida ham e'tirof etilgan¹⁸. Biz nutqimizning har tomonlama mukammal va o'ta tasirchan bo'lishiga, tinglovchi so'zlayotgan nutqimizning maqsad – muddaosini tezroq anglab olishiga ko'maklashadigan bir qancha tilning tayyor materiallaridan, ya'ni til birliklaridan juda ko'p foydalanishga harakat qilamiz. Maqol, matal, iboralarsiz nutq hech qanday estetik ta'sirchanlikka ega bo'lmay qolishi mumkin. Ayniqsa, iboralarda nutqqa emotsional-ekspressivlik ottenkasini berish vazifasi boshqa til birliklariga nisbatan kuchliroq bo'ladi. Iboralar barqaror birikmalar sifatida tilda doimiy tayyor materialdir. Shuning uchun ham har bir yozuvchi o'zining ijod mahsulini yaratish jarayonida ularga murojaat etmasdan qo'ymaydi..

Ibora ham tarkibli til birligi, lekin uning ma'nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolarning oddiy yig'indisiga teng bo'lmaydi. Iboraga xos ma'no tarkibidagi leksemalarning ma'nosiga nisbatan maxraj ma'no, ustama ma'no sifatida gavdalanadi, bu ma'no ibora tarkibidagi leksemalarning ma'nosiga suyanmasligi ham mumkin⁴³. Ma'lumki, voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon

¹⁸ Jumanazarova G. "Aql" uzvli iboralar. O'zbek tili va adabiyoti, 2012. 2-son 93-b.

⁴³Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. Toshkent. 1991-yil, 4-b.

ko'zio'ngida aniq va to'la gavdalantirishda frazeologik iboralarning o'rni, ahamiyati beqiyosdir. Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi ijobiy va salbiy harakat-ho'lalarni baholash, turmushda bo'lib o'tadigan turli hayotiy tajribalarni umulashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalaridir. Frazeologizm til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. Birdan ortiq leksema ko'rinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli ma'noviy tabiatga ega bo'lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi.

Tilshunoslikda frazeologizmlar tuzilishi, leksik-semantik, funksional-uslubiy va sintaktik vazifalari, shuningdek, o'ziga xos shakllanish xususiyatiga ega bo'lgan tilning mustaqil birligi sifatida allaqachonlar tan olingan. Ular leksikadan yuqori, gapdan quyi sathdaturadigan til hodisasisifatida ham e'tirof etilgan¹⁹. Biz nutqimizning har tomonlama mukammal va o'ta tasirchan bo'lishiga, tinglovchi so'zlayotgan nutqimizning maqsad – muddaosini tezroq anglab olishiga ko'maklashadigan bir qancha tilning tayyor materiallaridan, ya'ni til birliklaridan juda ko'p foydalanishga harakat qilamiz. Maqol, matal, iboralarsiz nutq hech qanday estetik ta'sirchanlikka ega bo'lmay qolishi mumkin. Ayniqsa, iboralarda nutqqa emotsional-ekspressivlik o'ttenkasini berish vazifasi boshqa til birliklariga nisbatan kuchliroq bo'ladi. Iboralar barqaror birikmalar sifatida tilda doimiy tayyor materialdir. Shuning uchun ham har bir yozuvchi o'zining ijod mahsulini yaratish jarayonida ularga murojaat etmasdan qo'ymaydi..

Rashod Nuri Guntekin asar yaratish jarayonida iboralarga juda ko'po'rinlarda murojaat etgan. Masalan:

1. ... Dügünümde bulunmazsan gelinliğim içime sinmeyecek, diyor. Bu kadar israra yüzüm tutmadı.

(To'yimda qatnashmasang kelinligim tatimaydi, deyapdi. Shunchalik iltimosga betim chidamadi.)

¹⁹ Jumanazarova G. "Aql" uzvli iboralar. O'zbek tili va adabiyoti, 2012. 2-son 93-b.

⁴³Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. Toshkent. 1991-yil, 4-b.

2. Rıhtımın kenarında kırılan bir dalga, müthiş bir serpinti yaptı, adamcağızı tepeden tırnağa kadar ıslattı... (19-20-b)

3. Mektubumun sonunda diyorsun ki: 'Gözlerimiz yolda kaldı...' (22-b)

(Maktubning oxirida debsanki: "Ko'zlarimiz yo'lda qoldi...")

4. ... Şöyle göz ucuyla baktım: Küçük vücut üstünde at yüzü gibi kocaman ve uzun bir çehre...(24-b)

(...Shunday ko'z uchi bilan qaradim. Kichik vujud ustida ot yuzi kabi katta va uzun bir chehra...)

5. Manasını anlamakta gecikmeyeceğin için sana beyhude ağız yapmayayım... (28-b)

(Ma'nosini tushunishga qiynalmasliging uchun behuda og'iz ochmay...)

6.... Remzi Bey 'gel efendim... Başım üzerinde yerin var... Seni omuzlarımda taşıyayım...' (38-b)

(Remzi bey: "Kel afandim... Hurmating baland... Srni yelkamda ko'tarib yuraman...")

7.- Homongolos... Malum... Aklına esti... Kusura bakmazsınız, dedi... (49-b)

(Homongolos... Ma'limki, esini yedi... Aybga buyurmaysiz.)

8. - Artık şüphem kalmadı Sara, diyordu, oltanın iğnesi saplandı. Kaya balığı boş yere çırpınıyor. (121-b)

9. Amcamla yengem zavallı kıza o gece babasından izin alıncaya kadar akla karayı seçmişlerdi. (129-b)

10. 'Kadın düşmanını yakında ayaklarımın altında ezeceğim' demekte haksız olmadığımı teslim ediyorsun değil mi Nermin? (125-b)

11. Sabahleyin dayımla yengem bu ağız süt kokan masum kızın birkaç saat içinde nişanlandığını haber alınca şaşırıldılar. (129-b)

12. - *Bu icadı sen çıkardın Sara... Haydi bakalım ayıkla pirincin taşını, diyorlardı. (130-b)*

Yozuvchilar odatda tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qo'llash bilangina kifoyalaniq qolmaydilar. Balki, qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab o'zgartiradi va qayta ishlaydi²⁰. Darhaqiqat, yozuvchi o'zi yaratayotgan qahramonning o'ziga xos xarakter-xususiyatlarini ochib berish jarayonida, tabiatan qanday shaxs ekanligini to'liqroq tasvirlashda iboralardan foydalanadi. Ayniqsa, yozuvchi insonning tana a'zolari bilan bog'liq bo'lgan iboralarni qo'llab, yuqori saviyadagi hikoyalarni yaratishga muvaffaq bo'lgan. Masalan:

1. ... *Düğünümde bulunmazsan gelinliğim içime sinmeyecek, diyor. Bu kadar ısrara yüzüm tutmadı.*

2. *Rıhtımın kenarında kırılan bir dalga, müthiş bir serpinti yaptı, adamcağızı tepeden tırnağa kadar ıslattı... (19-20-b)*

3. *Mektubumun sonunda diyorsun ki: 'Gözlerimiz yolda kaldı...' (22-b)*

4. ... *Şöyle göz ucuyla baktım: Küçük vücut üstünde at yüzü gibi kocaman ve uzun bir çehre... (24-b)*

5. *Manasını anlamakta gecikmeyeceğin için sana beyhude ağız yapmayayım... (28-b)*

6. *Hayf ve hayfa ki bu semavi ziyafete elimiz erişmiyor, uzaktan ağzımın suyu akıyor. (76-b)*

7. *Aman efendim ne yufka yüreğiniz varmış. (86-b)*

(Voy-ey afandim qanday yupqa yuragingiz bor ekan.)

8. *Kim bilir kimin ayağına ip taktılar. (90-b)*

²⁰ Yo`ldoshev.M . Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent, "Fan" 2006.

(Kim biladi kimni g'iybat qilishyapdi.)

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, insonning tana a'zolari bilan bog'liq bo'lgan iboralar hayotda juda ko'p qo'llaniladi. Bunday birikmalarni badiiy asar tarkibiga qay yo'sinda kiritish esa, yozuvchining so'z qo'llash mahoratiga bog'liq. Shu tariqa xalq iboralari sayqallanib, yangi ma'no nozikliklari bilan to'yinib boradi. Xalq iboralarini qayta ishlashning usullari, ularga yangicha rang va tus, yangicha ma'no talqini berishning yo'llari juda xilma-xildir. Bunga "umumtil iborasi zamiridagi ma'noning yangicha talqinini ochish iboraning leksik tarkibini o'zgartirish va uning semantik-stilistik funksiyalarini kengaytirish iboraga yangicha majoziy va obrazli ma'nolarni kiritish kabi usullarni kiritish mumkin". Frazeologik iboralarni qayta ishlashning turli usullarini tilshunos olim B. Yo'ldoshev keng tadqiq qilgan. Iboraning semantik tarkibida frazeologik ma'nodan tashqari, uslubiy bo'yoq ham mavjud bo'ladi. Salbiy yoki ijobiy baho semalari, odatda iboralarning mazmun planida bo'rtib turadi, bu omil iboralardan nutqiy ta'sirchanlikni ta'minlovchi uslubiy vosita sifatida foydalanish imkonini beradi, ayniqsa, badiiy asar tilida bunday birliklarning roli katta bo'ladi.

Ma'lumki, frazeologizm lug'aviy birlik bo'lganligidan u nutq jarayonida gap tarkibida kelganda bir mustaqil so'z, so'z birikmasi, gap tarzida harakat qiladi. Shu boisdan, agar yozuvchi yuqoridagi *gözlerimiz yolda kaldı...*, *ağız yapmayayım...*, *ağzımın suyu akıyor, kimin ayağına ip taktılar* kabi iboralarning o'rnida *seni kutyapmiz, behuda gapirmoq, yegim kelyapti, kimni g'iybat qilishyapti* kabi jumalarni qo'llanganida edi, asarning badiiy estetik qimmatini bunchalik oshmagan bo'lar edi. Va yozuvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga ham yetolmagan bo'lar edi.

Badiiy asarda sinonim so'z va sinonim iboralardan foydalanishda, ular anglatadigan ma'no farqlari va emotsional-ekspressiv belgi xususiyatlari hisobga olinadi. Chunki qo'llanayotgan har bir sinonim so'z va sinonim ibora o'z ma'no nozikliklari bilan bir-biridan farqlanib, ulardan o'rinli foydalanish ifoda etilayotgan fikrning aniq va ravon bo'lishiga xizmat qiladi. Bir frazeologik sinonimiya qatorini

tashkil etgan iboralar bir-biridan o'zlari ifodalagan ma'no qirralari, uslubiy bo'yoqdorligi, konnatativ ma'nosi, ta'sirchanlik va obrazlilik darajasiga ko'ra birbiridan farq qiladi.

Shuningdek, yozuvchining qanchalik ko'p sinonimlardan foydalanish mahorati uning til boyligining xilma-xil ekanligidan dalolat beradi. Yuqoridagi misollarda qo'llangan iboralar sinonim bo'lsa-da, ular o'z ma'no nozikliklari bilan bir-biridan farq qiladi. Hozirgi o'zbek tilida leksik sinonimlar bilan bir qatorda leksik- frazeologik va frazeologik sinonimlar mavjud bo'lib, ular badiiy uslub namunalarida keng qo'llaniladi, jumladan biz kuzatish olib borayotgan adib ijodida ham bu holat kuzatiladi. Ma'lumki so'zlar va iboralar o'rtasidagi sinonimik munosabat leksik-frazeologik sinonimlar hisoblanadi. Nutqimizda qo'llaydigan iboralar ham bir-biri bilan o'zaro sinonimik munosabatga kirishib, frazeologik sinonimiya qatorini hosil qiladi.

Bu iboralarning barchasi ishning ko'zini biladigan odamlarga nisbatan qo'llanilagan so'z birikmalari haqidadir. Bunda **“ayaġına ip takmak”** iborasi **“dedikodu yapmak”** (“g'iybat qilmoq”) iborasiga qaraganda ma'no darajasining kuchliligi, ifodaliligi jihatidan farq qiladi. Yozuvchi kuchsizroq va kuchliroq ma'no anglatuvchi iboralarni qo'llash orqali so'z qo'llash san'atini namoyish qilgan. Ko'rinib turganidek, sinonim iboralardan foydalanishdagi keng imkoniyat yozuvchi qalamining o'tkirligidan dalolat beradi.

Yozuvchining qanchalik ko'p sinonimlardan foydalanish mahorati uning til boyligining xilma-xil ekanligidan dalolat beradi. Yuqoridagi misollarda qo'llangan iboralar sinonim bo'lsa-da, ular o'z ma'no nozikliklari bilan bir-biridan farq qiladi. Hozirgi o'zbek tilida leksik sinonimlar bilan bir qatorda leksik- frazeologik va frazeologik sinonimlar mavjud bo'lib, ular badiiy uslub namunalarida keng qo'llaniladi, jumladan biz kuzatish olib borayotgan adib ijodida ham bu holat kuzatiladi. Ma'lumki so'zlar va iboralar o'rtasidagi sinonimik munosabat leksik-frazeologik sinonimlar hisoblanadi. Nutqimizda qo'llaydigan iboralar ham bir-biri

bilan o‘zaro sinonimik munosabatga kirishib, frazeologik sinonimiya qatorini hosil qiladi.

Frazeologik sinonimlarning deyarli barchasi ko‘chma ma’noda qo‘llanuvchi obrazli iboralar bo‘lib, ular asarda muallif nutqining rang-barang bo‘lishini ta’minlaydi. Bunday iboralarni ishlatish personaj nutqiga tavsif berishda eng faol qo‘llanadigan vositalardan biri sanaladi. Tildagi frazeologik sinonimlardan asarda to‘g‘ri qo‘llay bilish kishi nutqi uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Buning natijasida kishilar o‘zlarining fikr va g‘oyalarini eng nozik ma’no xususiyatlarini tushunarli va aniq, shirali, obrazli va ta’sirchan qilib ifodalashga muyassar bo‘ladilar.

Til – ijtimoiy hodisa sifatida doimo rivojlanishda vao‘rganishda davom etib keladi. Hayotning hech bir jabhasi yo‘qki, tilning barcha sathlaridan, til birliklaridan, tilning tayyor materiallari bo‘lgan ibora, maqol, masal, hikmatli so‘zlar va topishmoqlardan keng foydalanmasak. Bunday til materiallaridan badiiy adabiyotimizda ham keng va samarali foydalanib kelinmoqda. Ulardan ba’zida maqsad-muddaoni tez va ravon aniqlashda, ba’zida nutqning ta’sirchanligini oshirishda, qahramonlar nutqini boyitishda keng foydalaniladi. Chunki maqollarda fikr tugalligi, ixchamlik, mazmuniylik va ta’sirchanlik boshqa nutq vositalariga nisbatan kuchli bo‘ladi.

Maqollar - grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, kichik, ixcham, o‘tkir mazmunli, ko‘chma ma’noda yoki ham ko‘chma ma’noda, ham o‘z ma’nosida qo‘llanadigan hikmatli xalq iboralaridir.

Ma’rufjon Yo‘ldoshevning fikricha, maqollarda fikrni lo‘nda va tiniq ifodalash imkoniyatining mavjudligi nutqning ta’sirchanligini ta’minlashda juda qo‘l keladi. Badiiy asarning xalqchilligini, haqqoniy-ligini, ta’minlashda ham maqollarga murojaat qilinadi. Olim o‘z fikrini davom ettirar ekan, shunday deydi: Qahramonlar nutqini boyitish, emotsional-ekspressivlikka erishish maqsadida ham maqollardan foydalaniladi. *Yaxshining so‘zi – qaymoq, yomonning so‘zi –*

to‘qmoq, eshikli bo‘lding – beshikli bo‘lding, chumchuq so‘ysa ham, qassob so‘ysin, hamal keldi – amal keldi kabi obrazli va yaxlit barqaror birikmalar maqol hisoblanadi.

Rashod Nuri Guntekinning “Bir xotin dushmani” romanida ham maqollarni uchratish mumkinki, bu asar mazmunini yanada boyitishga xizmt qilgan.

Xalqimizda bir gap bor: “Har narsaning me’yorida bo‘lgani yaxshi”. Bu hikmat soz san’ati bo‘lmish badiiy adabiyotga ham daxldordir. Bu daxldorlik badiiy adabiyotda katta ahamiyatga ega. Chunki shu me’yorgina yaratilayotgan badiiy asarning yaxshi yoki yomon saviyada ekanligini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi. Lekin bu hikoyada maqollarning ishtiroki me’yordan oshgan bo‘lsa ham, bu hikoyaning mazmun ko‘lamini yanada boyitishga xizmat qilgan.

Har bir personajning nutqidagi maqollar o‘quvchida ajoyib bir emotsiya ya’ni kulgu uyg‘otadi. Ko‘chma ma’noda keltirilgan bunday maqollar asarga emotsional-ekspressivlik ottenkasini bera olgan. Masalan quyidagi jumлага e’tibor qarataylik:

1. Burada da geceleri gündüz etmeye başladık Nermin... ‘İnsan güneşi üstüne doğdurmamalı’ diye meşhur bir atalar sözü vardır. (46-b)

(Bu yerda kechalarni kunduz qilishni boshladik Narmin...)

2. Nermin bu dakikada beni bıçakla kesseler bir damla kanım çıkmazdı. (136)

(Nermin shu on meni pichoq bilan so‘ysalar bir tomchi qon chiqmas edi.)

Yuqorida aytib o‘tilganidek, maqol fikr mohiyatini aniq va ixcham ifodalaydi. U qanchalik ko‘p ishlatilishiga qarab emas, qanday ishlatilishiga, o‘rinli qo‘llanilishiga qarab ta’sir ko‘rsatadi.

2.4. II bob yuzasidan xulosa

II bob yuzasidan sinonim, antonim va iboralarni o‘rganib chiqishga harakat qildik. Rashod Nuri Guntekin “Bir xotin dushmani” romanida iboralardan keng

foydalanilganini guvohi bo'ldik. Asarda iboralardan mohirona foydalanilgan. Bu asarning yanada jozibador bo'lishiga yordam bergan. Asarni mutola qilish jarayonida o'quvchi zerikib qolmaydi, iboralarning ustalik bilan foydalanilganligi bunga yo'l bermaydi. Adib asarida tana azolari bilan bog'liq iboralarga keng o'zin bergan. Biz yuqorida buni misollar yordamida keltirib o'tdik. Bu asarga o'zgacha mazmun va ijobiy bo'yoqdorlik yuklagan. Asarda sinonimlardan ham foydalanilgan bo'lib, o'quvchi bir so'zning turli ma'nolarini o'qib mulohaza qiladi. Adibning so'z tanlash mahoratiga qoyil qoladi.

Frazeologik sinonimlarning deyarli barchasi ko'chma ma'noda qo'llanuvchi obrazli iboralar bo'lib, ular asarda muallif nutqining rang-barang bo'lishini ta'minlaydi. Bunday iboralarni ishlatish personaj nutqiga tavsif berishda eng faol qo'llanadigan vositalardan biri sanaladi. Tildagi frazeologik sinonimlardan asarda to'g'ri qo'llay bilish kishi nutqi uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Buning natijasida kishilar o'zlarining fikr va g'oyalarini eng nozik ma'no xususiyatlarini tushunarli va aniq, shirali, obrazli va ta'sirchan qilib ifodalashga muyassar bo'ladilar.

UMUMIY XULOSALAR

Badiiy asar tilini o'rganish keng qamrovli jarayon bo'lib, nafaqat adabiyotshunoslikka bog'liq badiiy g'oya, fikr, umumiy obrazlilik, individuallik, badiiy mahorat, shuningdek, tilshunoslikka oid semiotika, konnotatsiya, pragmatika kabi tushunchalarni umumlashtiradi, kognitiv fan sohalari bilan ham bog'lanib, o'zining tahlil doirasini bilish, tushunish, idrok etish, tahlil qilish, lisoniy tafakkur, lisoniy ong, lisoniy faoliyat, lisoniy shaxsiyat kabi tushunchalar bilan ham kengaytirib boradi. Ishga mana shu tarzda kompleks tarzda yondashish lingvopoetika uchun kutilgan natijalarni berdi.

Biz asarni fonetik, morfologik, sintaktik jihatdan o'rganib tadqiq qilishga harakat qildik. Buni qay darajada uddaladik muhtaram o'qituvchilarimiz baho berishadi, xato va kamchiliklarimizdan kerakli xulosalarni chiqarib olamiz.

So'z san'ati juda boy va o'ziga xos san'at. Uning bo'yoqdorligini ta'riflash mushkul. Biz Rashod Nuri Guntekinning "Bir xotin dushmani" asarini o'rganish orqali adibning so'z tanlash mahoratini, yozish uslubini tadqiq qildik.

Badiiy asar nutqi poetik xususiyatlarini turk adibi asari badiiy-adabiy tili materiallari, lisoniy dalillar asosida tahlil qilish ushbu tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi.

Rashod Nuri Guntekinning "Bir xotin dushmani" asari uslubini o'rganish orqali adib mahoratining lisoniy omillarini tadqiq etildi. Badiiy asar nutqi va adib uslubini shakllantirishdagi leksik, fonetik, grammatik vositalar, ko'chimlar va boshqalarning lisoniy omillari, voqelashuvi va individual nutqni shakllantirishdagi o'rnini atroflicha tahlil qilindi.

Turk adiblari orasida o'zining beqiyos o'rniga va o'ziga xos nutqiga ega bo'lgan Rashod Nuri Guntekin nutqi badiiy lisoniy nuqtai nazardan tahlil etildi. Turli xil lisoniy vositalar - gapni murakkablashtiruvchi vositalar, muayyan fonetik hamda leksik vositalarning Rashod Nuri Guntekin nutqidagi stilistik imkoniyatlarini boshqa adiblar nutqi bilan qiyoslab kuzatish orqali ularning badiiy uslub o'ziga xosligini ta'minlashdagi o'rni yorqinlashtirildi.

Odatda, leksik, kontekstual yoki nutqiy zid ma'noli so'zlar bir-biridan farqlanadi. Bir so'z bir ma'nosida antonimga rga bo'lishi, boshqa ma'nolarida umuman antonimga ega bo'lmasligi mumkin. Ba'zi so'z yasovchi affikslar ham antonimik juftlikni hosil qilishi mumkin.

Til birliklarining takrori natijasida yuzaga keladigan ifoda kambag'alligi va rangsizligidan qochish uchun, tasvir obyektiga e'tiborni jalb qilish uchun, ijobiy belgining darajama-daraja ortib borishini ifodalash kabi bir qancha turlarga bo'linib ketadi.

Ma'lumki zid ma'noli so'zlarning qo'llanishi badiiy nutqning ifodaliligi, bo'yoqdorligi, ta'sirchanligini ta'minlashda qulay vositalardan biri sanaladi. Sharq adabiyotida juda qadim zamonlardan buyon tildagi bu ifoda imkoniyatidan keng foydalanib kelingan. Zid ma'noli so'zlarni yonma-yon qo'llash orqali tushunchalar, belgilar, holatlar, obrazlar zidlantiriladi. Odatda, lisoniy va kontekstual yoki nutqiy zid ma'noli so'zlar farqlanadi.

Rashod Nuri Guntekinning "Bir xotin dushmani" asarini tadqiq qilish jarayonida diqqatimni ko'proq adib mohirona qo'llagan iboralar tortdi. 4 yil davomida o'rgangan iboralarimizdan tashqari yangi iboralarni o'rganishga muvaffaq bo'ldim. Juda go'zal iboralar o'quvchini e'tiborini jalb etmay qo'ymaydi.

Badiiy asarda sinonim so'z va sinonim iboralardan foydalanishda, ular anglatadigan ma'no farqlari va emotsional-ekspressiv belgi xususiyatlari hisobga olinadi. Chunki qo'llanayotgan har bir sinonim so'z va sinonim ibora o'z ma'no nozikliklari bilan bir-biridan farqlanib, ulardan o'rinli foydalanish ifoda etilayotgan fikrning aniq va ravon bo'lishiga xizmat qiladi. Bir frazeologik sinonimiya qatorini tashkil etgan iboralar bir-biridan o'zlari ifodalagan ma'no qirralari, uslubiy bo'yoqdorligi, konnatativ ma'nosi, ta'sirchanlik va obrazlilik darajasiga ko'ra birbiridan farq qiladi.

Shuningdek, yozuvchining qanchalik ko'p sinonimlardan foydalanish mahorati uning til boyligining xilma-xil ekanligidan dalolat beradi. Yuqoridagi misollarda qo'llangan iboralar sinonim bo'lsa-da, ular o'z ma'no nozikliklari bilan bir-biridan farq qiladi. Hozirgi o'zbek tilida leksik sinonimlar bilan bir qatorda leksik- frazeologik va frazeologik sinonimlar mavjud bo'lib, ular badiiy uslub namunalarida keng qo'llaniladi, jumladan biz kuzatish olib borayotgan adib ijodida ham bu holat kuzatiladi. Ma'lumki so'zlar va iboralar o'rtasidagi sinonimik munosabat leksik-frazeologik sinonimlar hisoblanadi. Nutqimizda qo'llaydigan iboralar ham bir-biri bilan o'zaro sinonimik munosabatga kirishib, frazeologik sinonimiya qatorini hosil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. - T, 1999.
2. Karimov I.A O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent: “O‘zbekiston” 2012-y, 39-b.
3. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T. 2008, 137-b.
4. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T. “O‘zbekiston”, 2017, 47-b.

O‘zbek tilidagi adabiyotlar

1. Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси, Т., 1990.
2. Abdullayev A. O‘zbektilidaekspressivlikningifodalanishi. –T.Fan, 1983.
3. Baydadayeva G. Okkazional antonimlarni vujudga keliruvchi obyektiv va subyektiv omillar. 2010
4. Hoshimov O`. O‘zbeklar. Toshkent. “G`afur G`ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi” 2007.
5. Jamoliddinova D. Parantez birliklarning ekspressiv sintaksisdagi o‘rni // Til tizimi va nutqiy faoliyat. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Samarqand, 2010
6. Jumanazarova G. “Aql” uzvli iboralar. //O`zbek tili va adabiyoti, 2012.
7. Rahmatullayev Sh. O`zbek tilining frazeologik lug`ati. T. 1991
8. Rahmonov G`. Sinonimlar qatorida graduonimiyaning ifodalanishi //O`zbek tili va adabiyoti. 2012
9. SaidxonovM. Badiiy matnkommunikativvositasifatida // O`zbektilivaadabiyoti, 2009.
10. Yo`ldoshev.M . Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T. 2006.
11. . Shukurova Z. “Qissasi Rabg`uziy” da maqollar. //O`zbek tili va adabiyoti. 2012
12. Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати. –Т. Ўздабийнашр, 1962;
13. Махмудов Н. Сўз эстетикаси. –Т. 1981;

14. Маҳмудов Н. Сўзэстетикаси. –Т. 1981;
15. Мирзаев И.
Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста
(на материале современной узбекской поэзии): Дисс...док.филол.наук. –Т.
1992;
16. Мирзаев И.
Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста
(на материале современной узбекской поэзии): Дисс...док.филол.наук. –Т.
1992;
17. Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. Т., Ўқитувчи, 1985.
18. Самадов Қ. Ойбекнинг тилмаҳорати. –Т 1981;
19. Умуркулов Б. Бадиий адабиёт дасўз. –Т. 1993;
20. Умуркулов Б. Бадиий адабиёт дасўз. –Т. 1993;
21. Қўчқортөев И. Бадиий нутқ стилистикаси. –Т. 1975;
22. Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтикада қиқи:
Филол.фан.док...дисс.автореф. –Т. 2009.

Türk tilidagi adabiyotlar:

1. Reşat Nuri Güntekin “Bir Kadın Düşmanı” – İstanbul –2016
2. Prof. Dr. Ertuğrul Yamaç Konuşma sanatı. Ankara.2012
3. Kudret Cevdet. Türk Edebiyatında Hikaye ve Roman, İnkılap Kitabevi, 5.baskı,
İstanbul – 1987.

Lug‘atlar

1. Büyük Türkçe Sözlük. Ankara – 1982. –S.74-75
2. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.:
“Akademnashr”, 2010 – 400-b.
3. Türk Dili ve Edebiyatı Ansiklopedisi, Devirler/İsimler/Eserler/Terimler,
İstanbul-1981.
4. Türk Ansiklopedisi, cilt 19, MEB Yayınevi, Ankara, 1971
5. Türk Dili ve Edebiyatı Ansiklopedisi/Devirler/resimler/Eserler/Terimler. Dergah

Yayınevi,cilt 4. İstanbul-1981.

6. Yeni Türk Ansiklopedisi. Ötüken Yayınevi,Cilt 4. İstanbul-1985.

7. Türkçe-Rusça Sözlük.Russkiy yazık yayınevi. Moskova. 2012. S.295

8. Dr. A.Doğan. Deyimler Sözlüğü. Ankara. 1992. S.430

9. Tojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – T.1974

10. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati. T. 1980